

**YEVRIPID TRAGEDIYASIDA AYOLNING JAMIYATDAGI O'RNI: "MEDEYA"
MISOLIDA**

Abduxafizova Moxinur Abdug'offor qizi

Qo'qon universiteti Andijon filiali 1-kurs talabasi

javohirabduhofizov2@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada qadimgi yunon tragediyanavis ijodkori Yevripidning "Medeya" tragediyasi adabiy jihatdan tahlil qilinadi. Asar fransuz faylasuf-feministlari Simon de Bovuar, H. Cixious va amerikalik feminist J. Batlarning feministik nazariyalari adabiy-nazariya uchun asos qilib olindi. Asar timsolida ayol obrazi va jamiyatdagi ayol o'rni qanday ifodalangani tahlil qilindi.

Kalit so'zlar

tragediya, ayol obrazi, gender tadqiqotlar, gender performativligi, monstroz.

Аннотация

В данной статье анализируется трагедия «Медей» древнегреческого драматурга Еврипида. Теоретической основой литературного анализа послужили феминистские теории французских философов Симоны де Бовуар, Элен Сиксу, а также американской феминистки Джудит Батлер. В работе рассматривается, каким образом в трагедии представлен женский образ и положение женщины в обществе.

Ключевые слова

трагедия, женский образ, гендерные исследования, гендерная перформативность, монструозное.

Annotation

This article provides a literary analysis of "Medea," a tragedy by the ancient Greek playwright Euripides. The study is grounded in the feminist literary theories of French philosophers Simone de Beauvoir and Hélène Cixous, as well as American feminist Judith Butler, which serve as the theoretical framework for the analysis. Through the lens of the play, the article examines how the female character and the position of women in society are represented.

Keywords

tragedy, female image, gender studies, gender performativity, monstrous.

Kirish.

Qadimdan ayol go'zallik, sabr va sadoqat timsoli bo'lib kelgan. Antik davrda gullab yashnagan qadimgi Yunoniston tarixida ham ayol nafislik, noziklik timsoli qilib tasvirlangan. Shu bilan birgalikda ushbu davrda ayollarning jamiyatdagi o'rni va mavqei e'tiborga olinmagan,



ular itoatkor, passiv o'rinda bo'lishgan. Ular uy xo'jalik yumushlari va farzand tarbiyasi bilan mashg'ul bo'lishgan. Ta'lim olish, ta'lim berish, saylash, saylanish huquqlari, davlat boshqaruvida ishtirok etish ularda mavjud bo'lmay otalari yoki erlari vasiyligida bo'lishgan. O'zi yashagan davrda Afinada bo'layotgan davlat-shahar tanazzuli va axloqiy me'yor inqirozlarni ijodkor nigohi bilan kuzatgan Yevripid o'z asarlarida tanqidiy munosabat bildirgan. "Medeya" tragediyasida ham jamiyatda ayollarning erlari qo'l ostida bo'lishlarini, jamiyatda hech qanday o'rni yo'qligini o'quvchiga yetkizib bera olgan. Ammo tragediyaning bosh qahramoni Medeya an'anaviy ayol obrazidan yiroq bo'lib, unda diplomatik nutq, qat'iyat, shaddodlik, erkaklarga xos shijoat belgilari namoyon bo'lgan. Bunga misol qilib Yasonni oltin mo'yna sohibi bo'lishdagi yordami, Yasonning xiyonatidan keyin o'z maqsadi yo'lidagi qat'iyati, Afina podshohi Egey bilan kelishuvlari yuqoridagi fikrimizni yorqin misoli bo'ladi.

"Medeya" tragediyasi miloddan avvalgi V asrlarda yozilgan bo'lsa-da, undagi ayol obrazi va jamiyatdagi ayol roli hali ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Buni quyidagi jihatlar bilan aniqlash mumkin:

Birinchidan, dunyo jamiyatida ayollarning ijtimoiy va huquqiy mavqei hali ham otalari yoki erlari vositasida hal etilish holatlari kuzatilmoqda. Masalan, BMT ning 2024- yil bergan bayonotlariga ko'ra, dunyoning 30dan ortiq davlatida ayollarning otasi yoki erining ruxsatisiz ishga joylashishi, pasport olishi yoki bank hisob raqamiga ega bo'lishi kabi huquqlarga ega ham emasligini ko'rishimiz mumkin.

Ikkinchidan, Medeya obrazida ifodalangan ayol g'azabi va uning jamiyat tomonida qanday qabul qilinishi bugungi madaniy tadqiqotlarning markaziy mavzusida. So'nggi asrda yaratilgan "Gone Girl", "Promising Young Woman" kabi asrlarda Medeyaga o'xshab, jamiyat bosimiga qarshi chiqqan ayol qahramonlar qasos, zo'ravonlik, va axloqiy noaniqlik bilan bog'liq holda tasvirlanmoqda.

Uchinchidan, adabiyotshunoslik va gender tadqiqotlarda antik matnlarni feministik nazariyalar bilan qayta o'qish XX asr oxiridan boshlab jadal rivojlanib kelmoqda. "Medeya" tragediyasi bu borada eng ko'p tahlil qilingan qahramonlardan biridir.

Ushbu maqolada ham Yevripidning "Medeya" tragediyasida ayol obrazi jamiyatdagi ayol o'rnini aks ettirishi maqsad qilib olingan bo'lib, zamonaviy gender munosabatlari, ayollar huquqlari, madaniy streotiplar va adabiyotning ijtimoiy voqelikni aks ettirishdagi rollari tahlil qilinadi. Hamda maqoladagi tadqiqot vazifalari quyidagilarni ifoda etadi:

- Asarda Medeyaning xatti-harakati va nutqini tahlil qilish;
- Medeyaning an'anaviy ayol roliga mos keladigan va mos kelmaydigan jihatlarini aniqlash;
- Yevripidning ayol mavqei haqidagi qarashlarini rekonstruksiya qilish.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.

"Medeya" tragediyasidagi ayol obrazi va jamiyatdagi ayol o'rnini tahlil qilishda feministik adabiyot tanqidining uch asosiy nazariy yo'nalishi asos qilib olindi. Bu nazariyalar — Simone de Bovuarining ekzistensial feminizmi, Helena Cixousning ayollar yozuvi nazariyasi, Judith Butlerning gender performativligi konsepsiyasidir.



Simon deb Bovuar nazariyasi. Fransuz ekzistensialist faylasufi va feministik nazariyotchisi Simon de Bovuar 1949- yilda "Ikkinchi jins" asari bilan feministik nazariyaning asosiy manbalaridan birini yaratdi. Uning asaridagi asosiy ma'nosi: " Ayol ayol bo'lib tug'ilmaydi, balki ayolga aylanadi". Ya'ni ayol erkakka nisbatan "boshqa" sifatida belgilanadi, erkak bo'lib yashash norma, ayol bo'lib yashash esa undan chetlashuv hisoblanadi. Asar mohiyatidan anglashimiz mumkin bo'lgan yana bir tushuncha ayol – *transsedent* (o'z taqdirini belgilovchi) subyekt emas, balki *immanent* (passiv, uy-ichiga qamalgan) obyekt sifatida qaraladi. "Medeya" tragediyasida Medeyaning xor ayollarga aytgan monologida ham ushbu holatni ko'rishimiz mumkin. Bovuar uchun ayolning erksizligi biologik emas, balki ijtimoiy va tarixiy hodisa deb qaraladi. Uning nazariyasi ayollarning jamoat hayotidan chetlanishi, iqtisodiy qaramligi va ramziy jihatdan "boshqa" sifatida belgilanishini tanqid qiladi.

Helena Cixousning "ayollar yozuvi" nazariyasi. Helena Cixous ham fransuz feministik nazariyotchisi bo'lib, uning "Meduzaning kulgusi" asari ayollar yozuvi nazariyasining manifesti hisoblanadi. Bu nazariya asosida "Medeya" tragediyasini tahlil qilinsa, Yunon jamiyatida ayolning ochiq maydonda nutq so'zlashi, erkak bilan bahslashishi, o'z g'azabini ifodalashi patriarxat tuzum uchun "monstruoz" (tabiat qonunlariga to'g'ri kelmaydigan, g'alati va qo'rqinchli xatti-harakat) deb hisoblangan. Medeya aynan shu monstruozlikni o'z kuchiga aylantiradi. Medeya ayollarning jismoniy va ruhiy azoblarini, ularning erksizligini ochiq tilga oladi. Bu Cixous ta'kidlagan "tanani yozish" tamoyilining teatr sahnasidagi muqobili sifatida qaralishi mumkin. Hamda Medeya Cixous ta'riflagan *jouissance* (lazzat) va qasos o'rtasidagi munosabatni ifodalaydi. Medeya qasosini rejalashtirish va amalga oshirish jarayonida bir turdagi ekstatik zavq his qiladi – bu uning patriarxat tizim chegaralaridan chiqib ketishini ifodasidir.

Judith Batlerning gender performativligi nazariyasi. Amerikalik feminist faylasuf va gender nazariyotchisi Judith Butler o'z asarlarida gender performativligi nazariyasini asosiy tushuncha deb olgan. Gender performativligi – bu jins tug'ma xususiyat emas, balki kundalik xatti-harakatlar, kiyinish uslubi, nutq va imo-ishoralar orqali doimiy ravishda "ijro etiladigan" ijtimoiy konstruksiya. Butler nazariyasi bo'yicha ushbu asarni tahlil qilsak, Medeya o'zining ayollik rolini to'liq bajarmagan obraz. U jamiyat kutgan itoatkor xotin, jim, passiv ona rolini o'ynamaydi. Shuning uchun jamiyat tomonidan "tashqariga" chiqariladi. Medeya nafaqat ayol rolini bajarmasligi, balki gender performativligining buzilish timsoli ham hisoblanadi. Uning Yason bilan bahsda erkakka xos nutqiy strategiyalarni ishlatishi bunga yorqin misol bo'la oladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR.

Medeya tragediyasining dastlabki sahnalaridayoq qahramonning marginal ijtimoiy mavqei ochib beriladi. U uch jihatdan "boshqa" hisoblanadi: birinchidan, u ayol; ikkinchidan, u xorijlik (barbar); uchinchidan, u eri Yason tomonidan tashlab ketilgan. Kreon, Korinf qiroli, Medeyaga murojaatida uning xorijlik ekanligini alohida ta'kidlaydi: "Sen, ey barbar ayol, ko'zlaringni o'ynatib, qaraydigan" (280-283-qatorlar). Ushbu murojaat shakli Medeyaning yunon jamiyatida qanchalik "begona" va "xavfli" deb qaralishining ifodasidir.

Medeyaning hech qayerda o'z joyiga ega emasligi asar davomida bir necha bor ta'kidlanadi. U Korinfdan haydalanish xavfi ostida, o'z vataniga (Kolxidga) qaytolmaydi – chunki u otasiga xiyonat qilgan, akasini o'ldirgan. Uning do'sti, himoyachisi yo'q. Medeyaning o'z so'zlari bilan aytganda: "Meni hech qayerda boshpanam yo'q, men xorijlikman" (450-455-qatorlar). Ushbu yolg'izlik va himoyasizlik uning keyingi harakatlarining muhim omili hisoblanadi. Farzand o'ldirish sahnasida (1019-1080-qatorlar) Medeyaning eng chuqur ichki ziddiyati namoyon bo'ladi. U o'z farzandlariga qarab, ikkilanadi: "Yo'q, qilma, jonim! Ey, bolalarim, keting bu



yardan!" (1050-1055-qatorlar). U bir vaqtning o'zida ikki rolni "bajarish"ga urinadi: mehribon ona va shafqatsiz qasoskor. "Qo'llarim titramaydi. Men bilaman: ularni o'ldirish – eng to'g'ri qasos" (1240-1245-qatorlar) – bu so'zlar bilan u ikkilanishni yengadi va qotillikni amalga oshiradi. Ushbu sahna antik adabiyotdagi ayol psixologiyasining eng chuqur tasvirlaridan biridir. Medeyaning sehrgarlik qobiliyati unga jamiyat tomonidan berilgan yagona kuch manbaidir. U zaharlar, afsunlar, sehrlil boslar orqali harakat qiladi: "Men ularga zaharlangan libos yuboraman" (780-785-qatorlar). Ayolning sehrgarlik bilan bog'lanishi qadimgi Yunoniston madaniyatida keng tarqalgan stereotip bo'lib, Medeya bu stereotipni o'z foydasiga ishlatadi.

XULOSA

“Medeya” tragediyasini tahlil qilar ekanmiz, uning antik Yunoniston hayotida qat'iyatli, ayol rolini ifoda etganini bilib oldik. Uning farzandlari boshqa yovuzlar qo'lida halok bo'lmasligi uchun ularni o'ldirgani qaysidir ma'noda onalik mehridan uzoqligini ko'rsatadi. Medeyaning qasosi faqatgina Yasondan o'ch olish emas, u Yasonning kelajagini, nasl-nasabini va baxtini yo'q qilishni istaydi. Yason bilan oltin mo'ynani olish uchun ajdarhoni uxlatib qo'yishi uni erkaklarga xos bo'lgan jasoratini, Afina shohi Egey bilan makon va xavfsizlikni ta'minlovchi sulhida esa uni o'sha davr ayollariga xos bo'lmagan diplomatik qobiliyatini ko'rsatib bergan. Yevripid ushbu asari orqali ayollar qanday qilib jamiyatga ziyon yetkazuvchi, xudbin shaxsga aylanib qolishini zamondoshlariga tushuntirmoqchi bo'lgan. Asar o'sha davr Afina jamiyatidagi ayollar huquqsizligini ochiq ko'rsatib bergan. Ya'ni ayol kishi doimiy kimgadir tegishli ekanini bilib turishi, vafo va sadoqatni u uchun muhimligini eslatmoqchi bo'ladi. Shu bilan birgalikda uning mehri nafratga aylanishi va nafratga aylangan mehri bilan qanday yovuzliklarga qodirligini ko'rishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. M .Mutalibova, YEVRIPIDNING “MEDEYA”TRAGEDIYASIDA AYOL OBRAZI//RECENT SCIENTIFIC DISCOVERIES AND METHODOLOGICAL RESEARCH. INTERNATIONAL ONLINE CONFERENCE// 47-48- b
2. Z. Tojimatova, M.Hamdama , “Medeya” tragediyasida xarakterlar talqini// “ nauchniy fokus”// No 13(100), may, 2024.
3. Asqar Qosimov, “Medeya”asari// G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti// Toshkent, 1985.
4. Qosimov. A, Xo'jayev. S, Chet el adabiyoti tarixi// Farg'ona , 2016
5. <https://oyina.uz/uz/teahause/2918>

